

Zafarxo'ja Tursunov

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL
ETISH VA BOSHQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI***

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasida davlat xaridini tashkil etish va boshqarishning joriy holati tahlil qilingan. Unda davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarining respublika bo'yicha jami xarajatlari va YaiMdagi ulushi, davlat buyurtmachilari tomonidan 2022-2024 yillar oralig'ida amalga oshirilgan davlat xizmatlari tahlil qilinib keng o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish va boshqarish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridi, xaridni boshqarish, elektron savdo, davlat buyurtmachisi, elektron tender, elektron platforma.

***ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF ORGANIZATION AND
MANAGEMENT OF PUBLIC PROCUREMENT IN THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN***

Abstract. This article analyzes the current state of organization and management of public procurement in the Republic of Uzbekistan. It analyzes and extensively studies the total expenditures of public procurement carried out by public customers in the republic and their share in GDP, as well as public services provided by public customers in the period 2022-2024. Scientific and practical

proposals and recommendations on the organization and management of public procurement in the Republic of Uzbekistan have been developed.

Keywords: public procurement, procurement management, e-commerce, government customer, e-tender, e-platform.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarining takomillashtirilishi iqtisodiy samaradorlik va byudjet mablag‘larining oqilona sarflanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy elektron xarid tizimlarining joriy qilinishi shaffoflikni oshirish bilan birga, korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Jahon tajribasidan kelib chiqilsa, ochiq tanlovlar asosida xaridlarni amalga oshirish iqtisodiy raqobat muhitini kuchaytiradi va mahsulotlar sifatini oshiradi. O‘zbekistonda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar davlat xaridlarining milliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sirini kuchaytirish imkonini bermoqda. Shuningdek, davlat xaridlarining strategik rejalashtirilishi budjet intizomini mustahkamlash bilan birga iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda davlat xaridlarini boshqarish O‘zbekiston iqtisodiyotida samarali resurs taqsimoti va moliyaviy nazoratni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot bankining so‘nggi yillarda o‘tkazgan baholashlariga ko‘ra, “davlat xaridlarining raqobatga asoslangan tartibda amalga oshirilishi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ushbu tizim orqali moliyaviy intizom, narxlar barqarorligi va tadbirkorlik muhiti takomillashmoqda”[1]. Mahalliy va xorijiy ekspertlar ta’kidlaganidek, davlat xaridlarining shaffofligi iqtisodiy islohotlarning asosiy indikatorlaridan biri sifatida

baholanadi. Natijada, davlat xaridlari orqali investitsiyaviy faollik kuchayib, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlari kengaymoqda.

Davlat xaridlarini tashkil etish va boshqarish tizimi O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu sohadagi islohotlar moliyaviy resurslarning maqsadli va samarali taqsimlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular davlat sektori faoliyatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish jarayonlari davlat xaridlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berib, hisobdorlik va aniqlik darajasini sezilarli darajada oshirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "davlat xaridlarining markazlashtirilgan boshqaruvi korrupsiya risklarini kamaytiradi va narxlar barqarorligini ta'minlaydi"[2]. Davlat xaridlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va ichki bozorni himoya qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida davlat xaridlari tizimida elektron savdolarni rivojlantirishni isloh etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xukumat tomonidan xarid jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, elektron xaridlarni amalga oshirishda elektron savdo jarayonlaridan kengroq foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, nafaqat, davlat mablag'laridan foydalanishning samarali xisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirish, elektron savdolarni samarali rivojlantirish tizimini shakllantirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot natijalari sifatida davlat xaridlari tizimida elektron savdolarni rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilganligi, O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish va boshqarishning joriy holati tahlil qilingani, davlat xaridlari tizimida elektron savdolarning operatorlar kesimida tahlil qilingani, davlat xaridlari tizimida elektron savdolarni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilingan, tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiligi hamda natijalari tavsiflangan, tadqiqot natijalarida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan, kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur sohani isloh qilish ko‘p jihatdan milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda rivojlantirish yo‘nalishlari va sur‘atlarini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Sue Arrowsmith (University of Nottingham, UK) xalqaro darajadagi eng nufuzli davlat xaridlari bo‘yicha mutaxassis hisoblanadi. Uning “The Law of Public and Utilities Procurement” (2014) nomli fundamental asarida Yevropa Ittifoqi tajribasi misolida davlat xaridlarida normativ huquqiy bazaning aniq va qat’iy bo‘lishi, tenderlar oshkoraligini kafolatlash va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha huquqiy mexanizmlar asoslangan[3]. Arrowsmith, shuningdek, transmilliy kompaniyalar ishtirokidagi xarid jarayonlarida barqarorlik (sustainability) mezonlarining kiritilishini taklif etadi.

Timothy Besley (London School of Economics) davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligi va korrupsiya bilan bog‘liqligini empirik modellar asosida o‘rganib chiqqan. Uning “State Capacity, Accountability and Corruption” (2007)

nomli ishida kuchli institutlar va ochiq xarid tizimlari mavjud davlatlarda korrupsiya darajasi past, iqtisodiy o'sish esa yuqori bo'lishi aniqlangan[4]. U davlat xaridlarini davlat boshqaruvi sifatining muhim indikatori sifatida baholaydi.

Xalqaro tajriba asosida, Jahon banki ekspertlari tomonidan e'lon qilingan 2022-yilgi "Government Procurement Review" hisobotida O'zbekiston davlat xaridlari tizimi "zarur islohotlar ostonasida"[5] deb baholangan. Hisobotda xarid jarayonlarini avtomatlashtirish, tenderda ishtirokchilarning doirasini kengaytirish va mustaqil audit tizimlarini joriy etish asosiy takliflar sifatida ilgari surilgan.

IMF (2021) "Public Investment Management Assessment" (PIMA) hisobotida ko'rsatilishicha, O'zbekistonda davlat xaridlari va infratuzilma investitsiyalari o'rtasidagi muvofiqlik darajasi hali yetarli emas[6]. Hisobotda xaridlar tizimini investitsion loyihalarning iqtisodiy bahosi bilan integratsiyalash zarurligi qayd etilgan.

OECD ekspertlari (2023) tomonidan e'lon qilingan "Reforming Public Procurement" hisobotida davlat xaridlarining nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilishi kerakligi qayd etilgan[7]. Bu hisobotda xarid siyosatida "Green Procurement", ya'ni ekologik mezonlar asosida tanlov qilish va "Social Procurement" — aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xaridlar strategiyasining dolzarbligi ko'rsatib o'tilgan.

Xusenov A.B. (2021) o'zining "Davlat xaridlarida samaradorlik va ochiqlikning iqtisodiy mexanizmlari" nomli tadqiqotida davlat xaridlarini boshqarishdagi asosiy muammo sifatida tender jarayonlarida ishtirokchilar sonining kamligi va raqobat muhitining sustligini ta'kidlaydi[8]. U shuningdek, elektron savdo maydonlarini joriy etish orqali xaridlarning oshkoraligini

kuchaytirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va davlat mablagʻlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkinligini isbotlab bergan.

Davlat tizimi va boshqaruv sohasidagi islohotlar natijasida xarajatlarni boshqarishning yangi huquqiy tizimi shakllantirilmoqda. Bu oʻz navbatida, davlat mablagʻlarini sarflanishi samaradorligini taʼminlashga, uning zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi. Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat, davlat mablagʻlari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qoʻyilgan vazifalarning muhimligini oshirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodik bazasini davlat xaridlari tizimida elektron savdolarni rivojlantirish yoʻllari boʻyicha tadqiqot uslublarini tashkil etdi, bundan tashqari analiz, sintez, guruhlash, taqqoslash, grafik, iqtisodiy-statistik uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maʼlumki, davlat oʻz vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilishga, aholining turmush darajasini koʻtarishga, hamda ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani taʼminlash kabi aniq maqsadlarga yoʻnaltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat boʻladi. Umumdavlat xarajatlari, asosan, davlat byudjeti va davlatning boshqa markazlashtirilgan fondlari orqali moliyalashtiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat xaridlari milliy iqtisodiyotning barqaror oʻsishini taʼminlashda muhim vositalardan biri hisoblanadi, chunki ular budjet

mablag'larining sarfini maqbullashtirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va iqtisodiy faollikni oshirish imkonini beradi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish, birinchi navbatda, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini kuchaytirish orqali erishiladi. Bu borada xalqaro tajribalar, xususan Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Kanada davlatlarining elektron xarid tizimlariga asoslangan yondashuvlari alohida e'tiborga loyiqdir. Davlat xaridlarining samaradorligi ko'p hollarda me'yoriy-huquqiy asoslarning aniq va barqaror ishlashiga bog'liq bo'lib, bu holat tender jarayonlarida raqobat muhitini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xarid qilinadigan mahsulot yoki xizmatning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aniqlashda baholash mezonlarining puxta ishlab chiqilishi katta rol o'ynaydi. Moliya nazariyasida tanlov samaradorligi degan tushuncha mavjud bo'lib, bu davlat xaridlarida eng maqbul va kam xarajatlilikka asoslangan tanlovni bildiradi. Aynan ushbu mezunga asoslangan tizimlar davlat xarajatlarini kamaytirish, samarali boshqaruvni ta'minlash va umumiy iqtisodiy unumdorlikni oshirishda ijobiy natijalar beradi. Shu bois, O'zbekiston sharoitida davlat xaridlarini samarali tashkil etish davlat budjetining barqarorligi, moliyaviy nazorat kuchaytirilishi va investitsion muhitning jozibadorligini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Amaliyotda kuzatilayotgan muammolar, xususan, xaridlar jarayonida byurokratik to'siqlar, raqobatning yetarli emasligi va axborotning to'liq ochiqlanmasligi kabi holatlar davlat xaridlarining samaradorligini pasaytiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron tender platformalarini joriy etish, shuningdek, barcha bosqichlarda monitoring va audit tizimlarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiya bu borada shunchaki vosita emas, balki davlat xaridlarining barcha bo'g'inlarini isloh qilishda strategik o'zgarishlar keltiruvchi

omildir. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar — Jahon banki, YIMF va OECD tomonidan ishlab chiqilgan davlat xaridlari standartlari va indikatorlariga muvofiqlikni oshirish lozim. Bu davlatning tashqi investorlar oldidagi ishonchliligini oshiradi, moliyaviy intizomni mustahkamlaydi va korrupsiyaviy xavflarni keskin kamaytiradi. Davlat xaridlarini samarali tashkil etish shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish, import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar xaridini ragʻbatlantirish orqali ichki bozorni himoyalash vazifasini ham bajaradi. Shu maʼnoda, iqtisodiy xavfsizlik va milliy sanoatni qoʻllab-quvvatlash davlat xaridlari siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlishi kerak.

Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda inson kapitalining sifati, yaʼni xaridlarni amalga oshiruvchi mutaxassislarning malakasi va halolligi muhim rol oʻynaydi. Shu bois, ushbu sohada ishlovchi kadrlar uchun doimiy professional rivojlanish kurslari, xalqaro amaliyotga mos malaka oshirish dasturlari va sertifikatlashtirish tizimini joriy etish zarur. Transparency International va boshqa tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, korrupsiya xavfi eng yuqori boʻlgan sohalardan biri aynan davlat xaridlaridir. Demak, ushbu tizimda ichki va tashqi nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarini monitoring jarayonlariga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Qonunchilik bazasida ochiqlik, erkin raqobat va hisobdorlik tamoyillarining mustahkamlab qoʻyilishi, ularning amalda bajarilishi ustidan real jamoatchilik nazorati oʻrnatilishi orqali davlat xaridlarida sifatli islohotlarga erishish mumkin. Bu esa oʻz navbatida davlat xarajatlarining optimallashtirilishi, samarali budjet boshqaruvi va iqtisodiy resurslarning oqilona taqsimlanishini taʼminlaydi.

Davlat zahiralarini shakllantirish, davlat ehtiyojlari uchun joriy va kapital xarajatlarni amalga oshirish, qishloq xoʻjalik mahsulotlarini, sanoat, qurilish

sohalarida davlat mablag'lari hisobidan xaridni amalga oshirish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirishning dolzarbligi ortmoqda.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarining respublika bo'yicha jami xarajatlari va YaiMdagi ulushi tahlili[9]

№	Davr	Yalpi ichki mahsulot (YaiM) qiymati	Shundan:									
			"Amalga oshirilgan davlat xaridlari jami"		Byudjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar		Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar		Shundan:			
									Korporativ buyurtmachilar		Yirik davlat korxonalari	
			Summasi	"YaiM ga nisbatan ulushi (foizda)"	Summasi	"YaiM ga nisbatan ulushi (foizda)"	Summasi	"YaiM ga nisbatan ulushi (foizda)"	Summasi	"YaiM ga nisbatan ulushi (foizda)"	Summasi	"YaiM ga nisbatan ulushi (foizda)"
1	2021 yillik	738 425,2	147 388	20,0%	57 008	7,7%	90 380	12,2%	41 322	5,6%	49 058	6,6%
2	2022 yillik	896 617,9	204 543	22,8%	69 590	7,8%	134 953	15,1%	59 170	6,6%	75 784	8,5%
3	2023 yillik	1 066 569,0	253 312	23,8%	76 971	7,2%	176 341	16,5%	72 391	6,8%	103 950	9,7%
4	2024 yillik	1 454 573,9	248 609	17,1%	78 709	5,4%	169 900	11,7%	62 832	4,3%	107 068	7,4%


1-jadval. Davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarining respublika bo'yicha jami xarajatlari va YaiMdagi ulushi to'g'risida ma'lumotga ko'ra: 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda yalpi ichki mahsulot (YaiM) miqdori va uning yillik o'sish ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi: 2021-yilda YaiM 738 425,2 mlrd so'm bo'lgan. 2022-yilda YaiM 896 617,9 mlrd so'mni tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 158 192,7 mlrd so'mga yoki 21,4%ga oshgan. 2023-yilda YaiM 1 066 569,0 mlrd so'mga yetib, 2022-yilga nisbatan 169 951,1 mlrd so'mga yoki 18,96%ga oshgan. 2024-yilda esa YaiM 1 454 573,9 mlrd so'm

bo‘lib, 2023-yilga nisbatan 388 004,9 mlrd so‘mga yoki 36,4%ga o‘sgan. Umuman olganda, 2021-yildan 2024-yilgacha YaiM 716 148,7 mlrd so‘mga yoki 97%ga o‘sgan.

2021-yilda amalga oshirilgan davlat xaridlari jami 147 388 mlrd so‘mni tashkil qilgan. 2022-yilda ushbu xarajatlar 204 543 mlrd so‘mga yetib, avvalgi yilga nisbatan 57 155 mlrd so‘mga yoki 38,8% ga oshgan. 2023-yilda esa bu ko‘rsatkich 253 312 mlrd so‘mga yetib, 48 769 mlrd so‘mga yoki 23,8% ga ko‘paygan. Biroq, 2024-yilda amalga oshirilgan davlat xaridlari jami 248 609 mlrd so‘mga tushib, 2023-yilga nisbatan 4 703 mlrd so‘m yoki 1,8% ga kamaygan. 2021-2024 yillar oralig‘ida davlat xaridlarining umumiy hajmi 101 221 mlrd so‘mga yoki 68,7% ga oshgan.

2021-yilda davlat xaridlarining YaiMdagi ulushi 20,0% ni tashkil qilgan. 2022-yilda bu ko‘rsatkich 22,8% ga oshib, 2,8 foiz bandga ko‘tarilgan. 2023-yilda esa eng yuqori darajaga yetib, 23,8% ni tashkil qilgan. Ammo, 2024-yilda davlat xaridlarining YaiMdagi ulushi keskin pasayib, 17,1% ga tushgan. 2021-2024 yillar oralig‘ida davlat xaridlarining YaiMdagi ulushi 2,9 foiz bandga kamaygan. Bu esa davlat xaridlarining iqtisodiyotdagi ulushi kamayib borayotganidan dalolat beradi.

2021-yilda byudjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar 57 008 mlrd so‘mni tashkil qilgan. 2022-yilda ushbu xarajatlar 69 590 mlrd so‘mga yetib, avvalgi yilga nisbatan 12 582 mlrd so‘mga yoki 22,1% ga oshgan. 2023-yilda esa xaridlar hajmi 76 971 mlrd so‘mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 7 381 mlrd so‘m yoki 10,6% ga o‘sgan. 2024-yilda esa xaridlar miqdori 78 709 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, 2023-yilga nisbatan 1 738 mlrd so‘m yoki 2,3% ga oshgan. 2021-2024 yillar oralig‘ida byudjet buyurtmachilarining xaridlari 21 701 mlrd so‘mga yoki 38,1% ga oshgan.



1-rasm. Davlat buyurtmachilari tomonidan 2022-2024 yillar oralig'ida amalga oshirilgan davlat xizmatlari diagrammasi[10]

Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar yillar davomida o'zgarib kelgan. 2021-yilda ushbu subektlar tomonidan 90 380 mlrd so'mlik xarid amalga oshirilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 134 953 mlrd so'mga yetib, 44 573 mlrd so'mga yoki 49,3% ga oshgan. 2023-yilda esa xaridlar hajmi 176 341 mlrd so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 41 388 mlrd so'm yoki 30,7% ga oshgan. 2024-yilda esa xaridlar hajmi 169 900 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6 441 mlrd so'm yoki 3,7% ga kamaygan.

"YaiMga nisbatan ulushi" ko'rsatkichi ham yillar davomida o'zgarishlarga uchragan. 2021-yilda korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan xaridlarning YaiMga nisbatan ulushi 12,2% ni tashkil

qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 15,1% ga yetgan. 2023-yilda ushbu ulush 16,5% ga ko'tarilgan, biroq 2024-yilda 11,7% gacha pasaygan.

Umuman olganda, 2021-2024 yillar oralig'ida korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar hajmi 79 520 mlrd so'mga yoki 87,9% ga oshgan. Shunga qaramay, 2024-yilda biroz pasayish kuzatilgan, bu esa ushbu subektlarning xarid siyosatida o'zgarishlar yuz berayotganini anglatishi mumkin.

Korporativ buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilgan xaridlar hajmi yillar davomida turlicha o'zgarishlarga uchragan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 41 322 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 59 170 mlrd so'mga yetib, 17 848 mlrd so'mga yoki 43,2% ga oshgan. 2023-yilda esa xaridlar hajmi 72 391 mlrd so'mga yetib, avvalgi yilga nisbatan 13 221 mlrd so'm yoki 22,3% ga ko'paygan. 2024-yilda esa pasayish kuzatilib, xaridlar hajmi 62 832 mlrd so'mni tashkil etgan, bu esa 2023-yilga nisbatan 9 559 mlrd so'm yoki 13,2% ga kamaygan.

Korporativ buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilgan xaridlarning YaiMga nisbatan ulushi ham yillar davomida dinamik o'zgarib borgan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 5,6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 6,6% gacha oshgan. 2023-yilda ushbu ulush 6,8% ga yetgan, biroq 2024-yilda keskin pasayib, 4,3% ni tashkil etgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlarini samarali tashkil etish zamonaviy iqtisodiy boshqaruvning ustuvor yo'nalishi bo'lib, u strategik rejalashtirish, raqamli texnologiyalar, inson kapitali va xalqaro standartlarga asoslangan tizimiy yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim. Bu borada amalga oshiriladigan islohotlar nafaqat davlat sektorining moliyaviy samaradorligini oshiradi, balki

xususiyl sektor faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat xaridlarining ochiqqligi va raqobatbardoshligi iqtisodiy muhitning sog'lomligini ta'minlaydi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va milliy iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, dastlab korporativ buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilgan xaridlar yildan yilga ortib borgan, ammo 2024-yilda kamayish kuzatilgan. Bu holat bozor sharoitlari, xarid strategiyalarining o'zgarishi yoki boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2021-2024 yillar oralig'ida korporativ buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilgan xaridlar umumiy hisobda 21 510 mlrd so'mga yoki 52,0% ga oshgan bo'lsa-da, so'nggi yilda pasayish tendensiyasi kuzatilgan.

Yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar hajmi yillar davomida muhim o'zgarishlarga uchragan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 49 058 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 75 784 mlrd so'mga yetib, 26 726 mlrd so'mga yoki 54,5% ga oshgan. 2023-yilda xaridlar hajmi 103 950 mlrd so'mni tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 28 166 mlrd so'm yoki 37,2% ga o'sgan. 2024-yilda esa ushbu o'sish biroz sekinlashgan bo'lib, xaridlar 107 068 mlrd so'mni tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan 3 118 mlrd so'm yoki 3,0% ga oshgan.

Yirik davlat korxonalarining amalga oshirgan xaridlarining YaiMga nisbatan ulushi ham o'zgarishlarga uchragan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 6,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 8,5% ga oshgan. 2023-yilda ushbu ulush 9,7% ga yetib, eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Biroq, 2024-yilda bu ulush 7,4% ga tushgan, bu esa davlat korxonalarining xarid strategiyasida o'zgarishlar yoki boshqa iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'lgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2021-2024 yillar oralig'ida yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar umumiy hisobda 58 010 mlrd so'm yoki

118,2% ga oshgan bo'lsa-da, YaiMga nisbatan ulushining so'nggi yilda pasayishi iqtisodiy muvozanatning o'zgarayotganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Public Procurement Systems in the Eastern Europe and Central Asia: A Comparative Analysis, World Bank Report, 2022.
2. Davlat xaridlari bo'yicha 2023-yil yakunlari bo'yicha tahliliy hisobot, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024.
3. Arrowsmith, S. (2014). The Law of Public and Utilities Procurement (3rd ed.). Sweet & Maxwell, London.
4. Besley, T., & Persson, T. (2007). State Capacity, Accountability and Corruption. *Econometrica*, 75(6), 1025–1068.
5. World Bank (2022). Government Procurement Review: Reforming Public Procurement in Transition Economies. Washington D.C.: World Bank Publications.
6. International Monetary Fund (IMF) (2021). Public Investment Management Assessment (PIMA): Uzbekistan.
7. OECD (2023). Reforming Public Procurement: Progress and Challenges. OECD Publishing.
8. Xusenov A.B. (2021). Davlat xaridlarida samaradorlik va ochiqlikning iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya, Iqtisod va moliya, Toshkent: 2021
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari siyosati departamenti
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari siyosati departamenti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27

sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli Qarori. www.lex.uz.

12. Thomas Dohrmann, Lenny Mendonca. Boosting Government productivity. The online journal of McKinsey & Company. November 2008.

13. E.R. Yescombe. Public-private partnerships. Principles of policy and finance. Published by Elsevier ltd. UK.2007.

14. Impact Assessment of an Action Plan on electronic public procurement. Ramboll Management. 2004.

15. Ann Norton. Integrated Management. CIMA official learning system. Elsevier. Oxford. 2009.